XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2023 - yil 7 - mart VI-73-43-8-111-K/23 Denov tuman hokimligi

Denov tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi budjet parametrlariga tegishli o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 127-moddasiga muvofiq tuman mahalliy budjetining 2023-yilgi budjet parametrlarini belgilangan xarajatlariga tegishli o‘zgartirish kiritish maqsadida Xalq deputatlari Denov tuman kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 127-moddasi, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi “Denov tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-69-200-8-111-K/22-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 30-dekabrdagi 05/21-32/355-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002-yil 14-martda 1111-son bilan ro‘yxatga olingan Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga asosan 2023-yilgi mahalliy budjet parametrlarida belgilangan xarajatlarini rejasi 61 475,0 (Oltmish bir million to‘rt yuz yetmish besh) ming so‘mga tegishli o‘zgartirish kiritilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi VI-69-200-8-111-K/22-sonli qaroriga quyidagicha o‘zgartirish kiritilsin.

2-ilovasi I-pozitsiyasi 4-satrdagi «9057495» raqami «8996020» raqami bilan, 16-satrdagi «19081» raqami «80556» raqami bilan almashtirilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy

komissiyasi raisi A.Niyozov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi o'rinbosari **A.Narzullayev**